



2019 yilning yanvar-fevral oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1129,9 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi – **102,1 % ni** tashkil etdi;
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o`rtacha **1373,2 ming.so`mni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **111,1 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **26,3 % ni** tashkil etib, aholi jon boshiga o`rtacha **360,6 ming.so`mga** to`gri keldi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **34,4 %**


2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1129,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 102,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 19,0 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash 2,6 % ga va qayta ishlash sanoati 1,4 % ga o'sishi hisoblandi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda



2019 yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o`shishiga qo`shgan hissasi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019 yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 90,9 % ni tashkil etganni kuzatish mumkin.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 517,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 45,8 % ni) tashkil etdi.


2019 yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,4 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Hususan 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sish indeksi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalarning ishlab chiqarish indeksi 136,3 % ni, boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi 118,3 % ni, hamda teri charm mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 106,6 % ni tashkil etgani kuzatildi.










Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 4,8 % ni (2018 yilning yanvar-fevral oylarida - 4,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 5,0 % (5,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 8,2 % (7,4%) va quyi texnologiyali - 82,0 % (82,8 %) tashkil etdi.



Yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



**Yanvar-fevral oyrida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil	2018 yil yanvar-fevraliga nisbatan, %
71,3	Sellyuloza, ming kg 90% 	229,7	322,2
5,8	Un, ming tonna 	6,7	115,5
310	Ho`jalik sovuni tona 	300	96,8
751,0	Kalava ip, tonna 	659,0	87,7
14,1	Paxta tolasi. ming tonna 	10,0	70,9
22,4	Paxta urug'i, ming tonna 	15,5	69,2
13,4	Kunjara, ming tonna 	8,2	61,2
3,0	O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna 	1,8	60,0
187,6	Aroq – mig litr 100 % spirt 	70,6	37,6

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 579,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 51,3 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi indeksi 102,6 % ga oshganligi kuzatildi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmi indeksi 102,8 % ni va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi indeksi 92,8 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	--	--	-------------------------

Elektroenergiya, mln kVt/s

3131,4



3281,8

104,8

Issiqlik energiyasi, mln Gkal

28,7



29,4

102,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 31,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,8 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 119,0 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Shuningdek 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan hajm indeksleri suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari 2,4 % ga, shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 22,6 % ga oshganligi kuzatildi.



Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilning Yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning Yanvar-fevralida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari, mln so'mda

1453,0



1977,9

136,1

Shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'mda

243,1




1302,0

535,6

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 296,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 11,1 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 26,3 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 53,5 % dan 2019 yilning yanvar-fevral oylarida 58,0 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 4,7 % ni (2018 yilning yanvar-fevral oylarida 6,5 %) tashkil etdi.

Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 547,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 48,4 % ulushini), Sirdaryo tumani 174,9 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,5 % ulushini), Guliston shahri 125,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 11,1 % ulushini), Boyovut 72,6 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,4 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Shu bilan birga eng kam ulush Guliston tumani 20,3 mlrd so'm (1,9 %), Xovos tumani 20,9 mlrd so'm (1,8 %) va Sardoba tumani 13,6 mlrd so'm (1,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1373,2 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi tahlil qilinganda, Shirin shahrida 29583,2 ming so'mni tashkil etib o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Boyovut tumanida 139,6%, Xovos tumanida 128,5 % hamda Oqoltin tumanida 115,4 %. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Sayhunobod tumanida 81,4% va Sardoba tumanida 41,8% ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 369,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 32,7 foizi) yoki 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 104,4 foizni tashkil qilgan.

2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23